

O'zbekiston Respublikasi pensiya ta'minoti tizimini isloh qilishda gender tengligi

Odiljon Aliqambarovich Xoshimov

Ilmiy rahbar: Sherzod Rajabov

Toshkent moliya instituti

Annotatsiya: Mazkur maqolada pensiya ta'minoti tizimida bir xil ish staji va ish haqiga ega erkaklar va ayollarni teng miqdordagi pensiya bilan ta'minlanishi masalalari yoritib berilgan. Tahlil natijalari yuzasidan amaliy takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: pensiya miqdori, konvensiya, o'rtacha ish haqi, talab etilgan ish staji, pensiyaning tayanch miqdori, ortiqcha ish staji, pensiya yoshi, bola parvarishlash davri, gender tengligi, onalikni muhofaza qilish

Gender equality in the reform of the pension system of the Republic of Uzbekistan

Odiljon Alikambarovich Hoshimov

Academic supervisor: Sherzod Rajabov

Tashkent Financial Institute

Abstract: This article highlights the issues of providing equal amount of pension to men and women with the same length of service and salary in the pension system. Based on the results of the analysis, practical suggestions are given.

Keywords: amount of pension, convention, average salary, required length of service, base amount of pension, excess length of service, retirement age, child care period, gender equality, maternity protection

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakatimizning 2023-yil Davlat dasturi loyihasi 293 ta banddan iborat bo'lib, O'zbekiston Prezidentining 2022-yilning 20-dekabr kuni Oliy Majlisga taqdim etgan murojaatnomasida belgilab berilgan asosiy g'oya va takliflari hamda 2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning yettita ustuvor yo'nalishi bo'yicha Taraqqiyot strategiyasida belgilangan asosiy vazifalarni inobatga olgan holda ishlab chiqildi.

O'zbekistonda gender tengligini kuchaytirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi O'RQ-562-sonli "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonun qabul qilingan. Bu qonun orqali Respublikamizda gender tengligi mustahkamlandi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq demokratik tamoyillarni qo'llab-quvvatlab, inson huquqlarini ta'minlashga doir qariyb 70 ta asosiy xalqaro hujjatlarga qo'shildi. Huddi shuningdek, pensiya ta'minoti tizimida ham gender tengligini ta'minlash muhim ekanligini bildiradi.

Adabiyotlar sharhi. Erkaklar va ayollarning barcha sohada teng huquqliyligi va bir xilda bajargan ishlari uchun teng haq to'lanishi va jinsiy kamsitishga yo'l qo'ymaslik Xalqaro mehnat tashkilotining "Teng haq to'lash to'g'risida"gi 100-konvensiyasida belgilab qo'yilgan.

Tiunov (2012) "Xalqaro huquq me'yorlari tegishli xalqaro majburiyatlarning barcha ishtirokchilar uchun talablarni birligini aks etiradi, uning maqsadi muayyan holatlarda teng huquqliligi va yagona xulq-atvorni taminlashdir" deya ta'kidlagan va uning fikricha xalqaro bitimlarni qabul qilish barcha millatlarni teng huquqliyligini ta'minlaydi.

Zaxarov (2015) "1952-yildagi "Eng kam ijtimoiy ta'minot talablari to'g'risida"gi konvensiyaning 29-moddasida ko'rsatilgan kamida 15 yillik sug'urta badallari to'langan ish staji bo'lgan fuqarolar eng kam pensiya bilan ta'minlanishi, bu aksariyat fuqarolar ayniqsa ayollarni pensiya olish huquqini yo'qotadi." deb hisoblaydi va uning fikriga ko'ra eng kam talab etilgan ish stajini 15 yil deb belgilanishiga qarshi.

Ortiz (2018) "Kam daromadli, mehnat qila olmaydigan yoki biroz muddat bo'lsa ham ishlamagan fuqarolar boshqalarga nisbatan kam jamg'aradi, natijada oz pensiya bilan ta'minlanadi va tengsizlikka uchraydi." deb ta'kidlagan o'zining "Pensiyani xususiyashtirini bekor qilish: Sharqiy Yevropa va lotin Amerikasining davlat pensiyalarini qayta tiklash 2000-2018" nomli maqolasida.


Karimov (1996) "Demokratik davlat qurmoqchi ekanmiz, eng avval, ijtimoiy adolat prinsiplariga sodiq bo'lib qolishimiz kerak." deb ta'kidlagan edi birinchi Prezidentimiz.

"Nogironligi bo'lgan shaxslar, boquvchisini yo'qotganlar, yolg'iz keksalar, umuman, ko'makka muhtoj qatlamlarni qo'llab-quvvatlash, albatta, ustuvor vazifamiz bo'lib qoladi" deya ta'kidlagan edi yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev va bu sohada tizimli ishlar olib borilmoqda.

Tahlillar va amaliy natijalar. Hozirgi kunda Respublikamizning doimiy aholisi soni Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra 2023-yil birinchi aprel holatiga 36,2 mln. kishini tashkil etib 2023-yil boshidan 175 ming kishiga yoki 0,4 foizga o'sdi. Shulardan 30,4 foizi mehnatga yaroqli yoshdan kichiklar, 59,5 foizi mehnatga layoqatli yoshdagilar, 10,1 foizi mehnatga yaroqli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda. Mamlakatimizda 2023-yilning yanvar-mart oylarida 159 ming bola (faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan) tug'ilganligi qayd etilgan. Aholining o'rtacha umr ko'rish yoshi 73,8 yosh, o'rtacha pensiya miqdori 1,1 mln so'mni tashkil qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi “Fuqarolarning pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi Qonunida fuqarolarga “umumiy asoslarda” yoshga doir pensiya olish huquqi ayollarga 55 yoshdan, erkaklarga 60 yoshdan deb belgilangan.

Mamlakatimizda ayollarga barcha sohalarda imtiyozlar berilgan. Jumladan pensiya ta’minoti tizimida erkaklarga nisbatan yoshga doir pensiya olishda umumiy belgilangan yosh erkaklarga nisbatan 5 yil kam belgilangan, talab etilgan umumiy ish staji 7 yil belgilangan, shunda yana ayollarni bola parvarishlash davri ham ish stajiga kiritilishi belgilangan. Ushbu yaratilgan imkoniyatlar natijasida aholining turmush darajasi bir muncha yaxshilandi va o‘rtacha umr ko‘rish yoshi avvalgi yillarga nisbatan o‘sdi.



1-rasm. Aholining tug‘ilishidan kutilayotgan umr davomiyligi 2022-yil holatiga.(Davlat statistika qo‘mitasi 2022)

Statistik ma’lumotlar ko‘rsatadiki (1-rasm.) ayollarning pensiyadan keyingi umr ko‘rish yoshi erkaklarnikiga nisbatan ko‘p. Ayollarni o‘rtacha umr ko‘rish yoshi 76,2 yilni tashkil etadi, bu esa ularni 55 yoshda pensiya tayinlanishini hisobga olinsa pensiyadan keyingi umr ko‘rish muddati 21.2 yilni tashkil etadi. Erkalarda esa o‘rtacha umr ko‘rish yoshi 71,4 ni tashkil etadi, bu esa ular 60 yoshga to‘lganida pensiya tayinlanishini inobatga olinsa, pensiyadan keyin o‘rtacha hisobda 11,4 yil umr ko‘rishlarini anglatadi. Bu holatda ham o‘rtadagi farq 2 barobarni tashkil etadi. Bu holat pensiya yoshini ham qayta ko‘rish kerakligini anglatmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 7 apreldagi 107-sonli qarorining 1-2-Ilovalarida ayollar va erkaklar uchun bir xil nafaqa miqdori belgilangan.

“Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida” Qonuniga asosan tayinlanadigan nogironlik va boquvchisini yo‘qotganlik pensiyalari uchun ham talab etilgan ish staji yoshiga nisbatan teng miqdorda belgilanganligini ko‘rish mumkin.

1-jadval

Nogironlik va boquvchisini yo'qotganlik pensiyalarini tayinlashda talab etilgan ish staji

Yosh	Ish staji
23 yoshgaqadar	2
23 yoshdan 26 yoshgaqadar	3
26 yoshdan 31 yoshgaqadar	5
31 yoshdan 36 yoshgaqadar	7
36 yoshdan 41 yoshgaqadar	9
41 yoshdan 46 yoshgaqadar	11
46 yoshdan 51 yoshgaqadar	14
51 yoshdan 56 yoshgaqadar	17
56 yosh va undan oshganda	20

Manba: "Fuqarolarning davlat Pensiya ta'minoti to'g'risida" gi Qonun (1993)

Ushbu jadval asosida tayinlangan barcha nogironlik pensiya miqdorlari ish staji va ish haqi bir xil bo'lgan erkaklar va ayollar uchun bir xil miqdorda tayinlanadi. Boquvchisini yo'qotganlik pensiyalarida ham oila a'zolari soni bir xil bo'lgan pensiyalar miqdori agar ish staji va ish haqlari bir xil bo'lsa, teng miqdorda pensiya tayinlanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida" gi Qonuning 7-moddasiga asosan bir xil ish staji va bir xil ish haqiga ega erkaklar va ayollarga tayinlangan yoshga doir pensiya miqdorini bir xil ekanligini pensiya tayinlash formulasiga asosan tekshiramiz.

Masalan: umumiy ish staji 25 yil va pensiya hisoblash bazaviy miqdori ($347\,000 \times 12$) 4 164 000 so'm (pensiya hisoblash bazaviy miqdorining 12 barobari) bo'lgan 60 yoshga to'lgan erkak va 55 yoshga to'lgan ayol kishi uchun belgilanadigan pensiya miqdorini hisoblab ko'ramiz.

$$PM_E = O' IH * 55\% + O' IH * OIS + QI ;$$

$$PM_A = O' IH * 55\% + O' IH * OIS + QI$$

Bunda:

PM_E - erkaklarning pensiya miqdori;

PM_A - ayollarning pensiya miqdori;

O' IH - o'rtacha ish haqi;

OIS - ortiqcha ish staji uchun oshirish;

QI - qo'shimcha imtiyozlar yoki ustama haqlar bo'lishi mumkin;

$$PM_E = O' IH * 55\% + O' IH * OIS + QI = 4164000 \text{so}'m * 55\% = 2290200 \text{so}'m ,$$

$$PM_A = O' IH * 55\% + O' IH * OIH + QI = 4164000 \text{so}'m * 55\% + 4164000 * 5\% = 2498400 \text{so}'m$$

Demak, yuqoridagi hisoblashdan so'ng 208 200 so'm miqdorda ayollarga erkak kishiga nisbatan ko'p pensiya tayinlanayotganligi ma'lum bo'ldi.

Ayollarga talab etilgan ish staji 20 yil deb belgilanganligi sababli, doim pensiya miqdori erkaklarga nisbatan ko'p tayinlanmoqda. Bu esa gender tengligini buzilishi

deb hisoblaymiz, chunki ayollarni e'zozlash va erkaklarga nisbatan kam ishlashligi va bola parvarishida bo'lishini qoplash uchun va pensiya miqdorini erkaklarning pensiya miqdorigi tenglashtirish maqsadida, ularga bola parvarishlash davrini ish stajiga qo'shish va erkaklarga nisbatan 5 yil oldin pensiyaga chiqish imtiyozlari berilgan.

Aksariyat xorijiy mamlakatlarda erkak va ayollar uchun talab etiladigan ish staji bir xil hisoblanadi. Masalan, Germaniyada 45 yil, Gresiyada minimal pensiya uchun 4500 kun (15 yil), to'liq pensiya olish uchun 12000 ish kuni (40 yil), Vengeryada 40 yil, Yaponiyada 40 yil deb belgilangan.

Xulosa. Yuqoridagi imtiyozlar ayollarni erkaklardan ko'p pensiya olish uchun emas, aksincha pensiya miqdorini kam bo'lib qolmasligini ta'minlash maqsadida amalga oshirilishi kerak deb hisoblaymiz.

O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat Pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonunining 7- va 12¹-moddalarini qo'llashda gender tengligiga rioya etilishini ta'minlash kerak, ya'ni ularga talab etiladigan ish stajini bir xilda 25 yil deb belgilanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Natijada, erkaklar va ayollar teng miqdordagi pensiya bilan ta'minlanadi.

Pensiya harajatlari manzilli va samarali sarflansa davlat va pensiya jamg'armalari fuqarolarning yashash sharoitini yaxshilash va ijtimoiy himoyani kuchaytirish uchun qo'shimcha dasturlar ishlab chiqishga imkoniyat paydo bo'ladi. Ihtiyoriy sug'urta badallarini rivojlanishi davlat va pensiya jamg'armasi daromadlarini shakillanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Davlat tomonidan turli xil imtiyozlar ayrim sohalarni rivojlanishiga ko'maklashish maqsadida amalga oshirilishi kerak, aksincha ortiqcha imtiyozlar boqimandalikni keltirib chiqaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Захаров М.Л (2013) "Международные правовые стандарты пенсионного обеспечения и российская страховая пенсионная система", Международные и российские нормы пенсионного обеспечения. Сравнительный анализ. М., 2013.
2. Konvensiya №100. (1951) "Teng haq to'lash to'g'risida" 30.08.1997 yilda ratifikatsiya qilingan. Toshkent.,1997.<http://www.lex.uz>
3. Mirziyoev Sh.M. (2018) "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi" Toshkent., 2018. <http://www.lex.uz>
4. O'RQ (1993) O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonuni. 1993-yil 3-sentabr. (O'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
5. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. <http://www.stat.uz>
6. Хайдаров Н.Х. Молия: умумдавлат молияси. Т.: Иқтисод-молия, 2009

7. N Xaydarov. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari. O'quv qo'llanma. Toshkent: Akademiya, 2007
8. G.G. Nazarova, N.X.Xaydarov, M.T.Akbarov. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. - T.: MChJ "RAM-S", 2007
9. ТС Маликов, НХ Хайдаров. Молия: умумдавлат молияси. Тошкент:«IQTISOD-MOLIYA, 2009
10. Т.Маликов, Н.Хайдаров. Бюджет: тизими, тузилмаси, жараёни. 2007
11. Т.С. Маликов, Н.Х. Хайдаров. Финансы: государственные финансы. Учебное пособие. Экономика и финансы. Ташкент. 2009
12. У Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишнинг устувор йўналишлари. Science and Education, 2022
13. У.Ю.Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар шаффофлиги ва очиқлигини таъминлашнинг устувор йўналишлари. Бизнес-Эксперт журнали, 2020 й. 4-сон.
14. У.Ўроқов. Давлат харидлари тизимида электрон харидлар хажмини ошириш масалалари. 2021
15. У.Ўроқов. Ғазначилик тизимида бюджет маблағларидан самарали фойдаланиш масалалари. 2017
16. У Ўроқов. Бюджет маблағларидан самарали фойдаланишни таъминлаш йўллари. 2017
17. Uchqun Yunusovich O'roqov, Farzona Axmadqul Qizi Abduazimova. Davlat maqsadli jamg'armalarining mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi ahamiyati. Science and Education. 2022
18. Urokov Uchkun Yunusovich, Toshmatova Rano Gaipovna, Sharapova Mashhura Azadovna, Ismailova Nasiba Komiljonovna, Isaev Husan Mansurovich. Matters of revenue generation and cost optimization while increasing the efficiency of the state budget. Journal of Hunan University (Natural Sciences). 2021/12
19. АА Ботиров, НВ Юлдашева. Местные бюджеты. Учебник. Местные бюджеты. Учебник. Т-Издательство: МОЛИЯ-ИКТИСОД, 2015
20. Надира Викторовна Юлдашева. Типология моделей межбюджетных отношений. Вестник науки и образования.2016
21. В Юлдашева, ФШ Хамраева. Некоторые вопросы совершенствования пенсионного обеспечения отдельных категорий граждан в республике Узбекистан. Проблемы современной науки и образования, 2017
22. Юлдашева Н.В Бабаева Ш.С. Специфика организации государственной финансовой поддержки субъектов малого бизнеса в Республике Узбекистан. Интернаука, 2022
23. OECD (2015) Pension at a Glance 2015: OECD and G20 indicators, OECD publishing, Paris. http://dx.doi.org/10.1787/pension_glance-2015-en.

24. Ortiz I., Fabio D., Stefan U., Veronika W., Zhiming YU. (2018) Reversing Pension Privatization: Rebuilding public pension systems in Eastern European and Latin American countries (2000-18).